

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.Qx.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

XOLMATOV OTABEK ISMATOVICH

**FOSFORLI O‘G‘ITLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY
ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural Sciences**

Xolmatov Otabek Ismatovich

Fosforli o‘g‘itlar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chi-
qish..... 3

Холматов Отабек Исмамович

Разработка научных основ повышения эффективности
фосфорных удобрений..... 21

Kholmatov Otabek Ismatovich

Developing the scientific basis for increasing the efficiency of
phosphorus fertilizers..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.08/2025.27.12.Qx.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TUPROQSHUNOSLIK VA AGROKIMYOVIY TADQIQOTLAR
INSTITUTI**

XOLMATOV OTABEK ISMATOVICH

**FOSFORLI O'G'ITLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ILMIY
ASOSLARINI ISHLAB CHIQISH**

06.01.04 – «Agrokimyo»

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhDQx1005 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertasiyasi avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti veb-sahifasida (<http://www.soil.uz>) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (<http://www.ziynet.uz>) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Boirov Abdunabi Jo'rayevich

qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Nazirbay Madrimovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Mirzayev Lutfullo Aribjanovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertasiya himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.Qx.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «11» 02 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy. E-mail: info@soil.uz)

Dissertasiya bilan Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (93 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy.

Dissertasiya avtoreferati 2026 yil «26» 01 kuni tarqatildi.

(2026 yil «26» 01 dagi 2 raqamli reestr bayonnomasi)



Sh.M.Bobomurodov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

N.N.Qalandarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., katta ilmiy xodim

N.Yu.Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda «dunyo qishloq xo‘jaligi tizimlari qayta tiklanmaydigan resurs bo‘lgan, fosfatli tog‘ jinslaridan ishlab chiqariladigan fosforli mineral o‘g‘itlariga juda bog‘liqdir¹. Dunyo qishloq xo‘jaligi tizimlarida fosfor iste‘moli so‘nggi 50 yilda qariyb 3,5 baravar oshdi, ammo iqtisodiy jihatdan qulay qazib olinadigan zaxiralar 2050-yilga borib kamida 20-30 foizga qisqarishi prognoz qilinmoqda»². Qishloq xo‘jaligida qo‘llaniladigan fosforning atigi 15-25 foizi o‘simlik tomonidan o‘zlashtiriladi, qolgan qismi esa tuproq bilan mustahkam bog‘lanib qoladi, agarda fosforni o‘zlashtirish koeffitsiyentini atigi 5 foizga oshirilsa, global miqyosda 2-3 mln tonna fosforni iqtisod qilinishiga olib keladi. Shuning uchun ham fosfat ta‘minotidagi prognoz qilingan qisqarish sharoitida uzoq muddatli yechimlar asosan ekinlarda fosfordan foydalanish samaradorligini oshirishga va fosforning yo‘qotilish kanallarini kamaytirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Dunyoda qishloq xo‘jaligida fosfor muammolarini yechishga yo‘naltirilgan ko‘p ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Bu yo‘nalishda yirik ilmiy markazlar hisoblanadigan Angliyaning “Rothamsted Research”, Avstraliyaning qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligida fosforning rolini o‘rganuvchi “CSIRO” ilmiy agentligi, AQSh ning fosfordan barqaror foydalanish bo‘yicha “STEPS” fan va texnologiyalar markazi, “IFA” xalqaro o‘g‘itlar assotsiatsiyasi, Braziliyadagi “Santa-Mariya Federal universiteti” va boshqalar fosfordan tejankor va samarali foydalanish strategiyalari va texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar o‘tkazib, fosforli o‘g‘itlardan strategik foydalanish yuqori hosildorlikni ta‘minlashi mumkinligini, yuqori hosildorlik o‘z navbatida oziq-ovqat ishlab chiqarish uchun ajratilgan yer maydonini minimallashtirish, barqaror va nisbatan arzon oziq-ovqat ta‘minotini saqlashga yordam berishini ta‘kidlamodalar.

Respublikamizda tabiiy va sug‘oriladigan tuproqlarning fosforli holatini o‘rganish, ularda fosforning o‘simliklar o‘zlashtiradigan shakllari miqdorini maqbullashtirish, o‘g‘itlar fosforining ekinlar tomonidan o‘zlashtirilishi va samaradorlikni oshirish borasida keng miqyosli ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» da «Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo‘jaligining yillik o‘sishini kamida 5 foizga yetkazish» maqsad qilingan bo‘lib, mazkur maqsadga erishish uchun «Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish»³ asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan. Shuning uchun ham dehqonchilikda fosforli o‘g‘itlar samaradorligini oshirish muammolarini yechishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

¹ <https://resoilfoundation.org/en/agricultural-industry/agriculture-dependence-phosphorus/>

² https://phys.org/news/2023-01-soil-available-phosphorus-mineral-fertilizers-agricultural.html?utm_source=chatgpt.com

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 - yil 17 - iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni, 2022 - yil 10 - iyundagi PQ-277-son «Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴ gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof - muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tuproq fosfori va uning o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi, fosforli o'g'itlar samaradorligini oshirish muammolari o'rganishga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Bu yo'nalishda xorijda K.E.Ginzburg, T.N.Kulakovskaya, R.E.Eleshev, P.G.Aderixin, L.M.Derjavin, C.C.Averkina, J.K.Sers, M.G.Costa, E.M.Muindi, T.Mardamootoo, E.Adhami, J.Bhatti, R.L.Fox va boshqalar hamda respublikamiz olimlari S.A.Kudrin, B.P.Machigin, J.S.Sattorov, T.P.Piroxunov, F.Xoshimov, M.M.Tashkuziev, N.M.Ibragimov, A.Kuzieva, N.L.Zglinskaya, B.I.Niyazaliev, L.A.Mirzaev, N.Yu.Abduraxmonov, A.J.Boirov, Sh.A.Jo'rayev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Lekin, qishloq xo'jaligida fosforli o'g'itlarni qo'llashda ularning tuproqda adsorbsiyalanishi va tuproq eritmasida hosil bo'ladigan muvozanat konsentratsiyasini aniqlash asosida fosforli o'g'itlarning maqbul me'yorlarini belgilash orqali ular samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining PZ-202011266 "Fosfor adsorbsiyasi izotermik modellari asosida tuproqlarning fosfor ta'minotini yaxshilash texnologiyasini yaratish" (2021-2024 yy.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida g'o'za va kuzgi bug'doyga qo'llaniladigan fosforli mineral o'g'itlar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning asosiy xossa va xususiyatlarini, tuproqda fosfor adsorbsiyasini va tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasini Nair va boshqalar usulida o'rganish;

model laboratoriya tajribasida tuproqda fosfor adsorbsiyasini va turli me'yorlarda fosforli mineral o'g'it va fosforli mineral o'g'it bilan birga organik o'g'itlar qo'llashning tuproqda, harakatchan fosfor dinamikasi, fosfor adsorbsiyasi va uning tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasiga ta'sirini o'rganish;

⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son farmoni.

“g‘o‘za-kuzgi bug‘doy-takroriy ekin” tizimida dala tajribasini o‘tkazish, fosfor adsorbsiyasini va tuproqning fosforgia standart talabini aniqlash asosida g‘o‘za va kuzgi bug‘doyga qo‘llaniladigan fosforli o‘g‘itlar me‘yorlarini belgilash;

tuproqda asosiy ozuqa elementlarining harakatchan shakllari dinamikasini aniqlash, g‘o‘za va kuzgi bug‘doyning o‘sishi va rivojlanishini biometrik o‘lchovlar va fenologik kuzatuvlarda o‘rganish;

g‘o‘za va kuzgi bug‘doy organlarida asosiy ozuqa elementlarining miqdori, g‘o‘za va kuzgi bug‘doy tomonidan ularning olib chiqilishi, vegetativ va generativ organlarida taqsimlanishi, hosil birligini shakllantirishi uchun sarflashini aniqlash;

g‘o‘za va kuzgi bug‘doy tomonidan fosforli o‘g‘itlar fosforini o‘zlashtirilishi ko‘effitsiyenti va g‘o‘za, kuzgi bug‘doy va takroriy ekin hosildorligini aniqlash;

tadqiqotlar natijalari asosida sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitida g‘o‘za va kuzgi bug‘doyga qo‘llaniladigan fosforli o‘g‘itlar samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti Toshkent viloyatining eskidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari, mineral va organik o‘g‘itlar, g‘o‘za, kuzgi bug‘doy, takroriy ekin (soya) hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti tuproqlarning xossa-xususiyatlari, tuproq fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi, sug‘oriladigan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi, mineral va organik o‘g‘itlarning fosfor adsorbsiyasi va uning tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasiga ta’siri, tuproqning fosforgia standart talabini aniqlash, ekinlarga fosforli o‘g‘itlar me‘yorini tuproqning fosforgia standart talabi asosida belgilash, ekinlarning o‘sishi, rivojlanishi, qo‘llanilgan fosforni o‘zlashtirishi va hosildorligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning uslublari. Tadqiqotlarda kimyoviy-analitik uslublardan foydalanilgan hamda tuproq namunalari tahlillari «Агрохимические методы исследования почв» qo‘llanmasida bayon etilgan uslublarda, fosforning noorganik va organik fraksiyalari Hedley uslubida, fosfor adsorbsiyasi Nair va boshqalar uslubida aniqlangan, olingan ma’lumotlarning matematik-statistik tahlili «Microsoft excel» dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Toshkent viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari misolida respublikamizda ilk bor tuproqqa berilgan fosforning adsorbsiyasi, tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasi va tuproqning fosforgia standart talabini aniqlashda Nair va boshqalar uslubidan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilgan;

Nair va boshqalar uslubida mineral va organik o‘g‘itlarning tuproqda fosfor adsorbsiyasiga, fosforning tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasiga ta’siri va tuproqning fosforgia standart talabi aniqlangan;

tuproqning fosforgia standart talabi va ekinlarning rejalashtirilgan hosilni shakllantirishi uchun sarflaydigan fosfor miqdorini hisobga olgan holda g‘o‘za va kuzgi bug‘doyga qo‘llaniladigan fosforning maqbul me‘yorlarini belgilash usuli ishlab chiqilgan;

g‘o‘za va kuzgi bug‘doyga faqat fosforli mineral o‘g‘it, fosforli mineral o‘g‘it bilan birga go‘ng va kompost qo‘llashning harakatchan fosfor dinamikasi, o‘silimliklarning o‘sishi va rivojlanishi, fosforni o‘zlashtirishi, vegetativ va

generativ organlarida taqsimlanishi, hosil birligini shakllantirishga sarflanishi, fosforli o'g'it organik o'g'itlar bilan birga qo'llanilganda mineral o'g'itlar 10- 15 % tejalishi, g'o'za hosildorligini 7,4-9,9 foizga, kuzgi bug'doy don hosilini 17,1-20 foizga oshirishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot obyektidagi fermer xo'jaligi misolida, tuproqning fosforga standart talabini ko'rsatuvchi fosfor adsorbsiyasi kartogrammasi tuzilgan;

tuproqlarning fosforga standart talabi asosida hisoblangan me'yorlarda fosforli mineral o'g'itlar bilan birga go'ng va kompostni qo'llash fosforli o'g'itlar samaradorligini oshirib, ularni tejashga va qo'shimcha 3,5- 4,0 s/ga paxta va kuzgi bug'doydan qo'shimcha 10,5-12,2 s/ga don hosili olishni ta'minlagan.

Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari uchun «tuproqlarning gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik» kartogrammalari tuzilgan va amaliyotga joriy etilgan. Natijada tuproqda gumus va asosiy oziqa elementlari ta'minotini yaxshilashga, g'o'za va kuzgi bug'doy hosildorligini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotlarda dala, laboratoriya va boshqa qabul qilingan standart uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlillardan o'tkazilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tadqiqot natijalari xalqaro va mahalliy ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, ularni amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar va xulosalarning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tuproqda fosfor adsorbsiyasini aniqlashda Nair va b. uslubi respublikamizda ilk bor qo'llanilganligi va shu asosda tuproqqa berilgan fosforning adsorbsiyasi va tuproqning fosforga standart talabi aniqlanganligi, g'o'za va kuzgi bug'doyga qo'llanadigan fosfor maqbul me'yorini belgilash usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, tuproqda fosfor adsorbsiyasi to'g'risidagi ma'lumotlar fermer xo'jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar yer maydonlari tuproqlari uchun tuproqning fosforga standart talabini ko'rsatuvchi, fosfor adsorbsiyasi kartogrammalarini tuzish va shu asosda g'o'za va kuzgi bug'doyga maqbul me'yorlarda fosforli o'g'itlar qo'llash orqali ekinlardan rejalashtirilgan hosil yetishtirishda xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fosforli o'g'itlar samaradorligini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha bajarilgan tadqiqotlaridan olingan ilmiy va amaliy natijalar asosida:

Toshkent viloyati Bo'ka tumani Ravot massivi «Mirzaqul, Qarshiboy, Kozimjon» fermer xo'jaligi 76 gektar, Yuqori Chirchiq tumani Guliston massivi «Agro Eko Pro» fermer xo'jaligi 125,08 gektar yer maydonlarining 1:5000 masshtabli «Tuproqlarning gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy bilan ta'minlanganlik» kartogrammalari tuzilgan va massivlardagi fermer

xo'jaliklarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 28-avgustdagi 05/05-04-510-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur eskidan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlar sharoitida tuproqda gumus va asosiy oziqa elementlar bilan ta'minlash orqali tuproqni agrokimyoviy holatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar belgilash imkonini bergan;

Toshkent viloyati Bo'ka tumanidagi «Mirzaqul, Qarshiboy, Kozimjon» fermer xo'jaligining 76 gektar, Yuqori Chirchiq tumanining «Agro Eko Pro» fermer xo'jaligining 125,08 gektar jami 201,08 gektar yer maydonlarini 1:5000 masshtabli «Tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi» kartogrammasi tuzilgan va fermer xo'jaliklari yer maydonlariga amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 28-avgustdagi 05/05-04-510-son ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqning fosforiga standart talabi va ekinlarning rejalashtirilgan hosilini shakllantirishi uchun sarflaydigan fosfor miqdorini hisobga olgan holda fosforli o'g'itlar me'yorlarini to'g'ri belgilashga imkon bergan;

«Sug'oriladigan tuproqlar fosfor ta'minotini maqbullashtirish orqali ekinlarning rejalashtirilgan hosildorligini ta'minlash bo'yicha tavsiyanoma» ishlab chiqilgan va Toshkent viloyatining Bo'ka, Yuqori Chirchiq tumanlaridagi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqli yer maydonlarida amaliyotga joriy etilgan (Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 28-avgustdagi 05/05-04-510-son ma'lumotnomasi). Natijada, fermer xo'jaliklari sug'oriladigan tuproqlarida fosforli o'g'itlar samaradorligini oshirish orqali paxtadan qo'shimcha 3,5- 4,0 s/ga va kuzgi bug'doydan qo'shimcha 5,2-6,3 s/ga don hosili olishga erishgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 4 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan 1 ta tavsiyanoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 1 tasi xorijiy nashrlarda va 5 tasi respublika jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari, ob'ektlari va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Qishloq xo'jaligida fosfor muammolarining o'rganilish holati deb nomlangan birinchi bobida xorijda va respublikamiz tuproqlarida mavjud fosfor muammolari, mineral va organik o'g'itlarni qo'llash masalalarining o'rganilish holati tahlil qilinib, respublikamiz sug'oriladigan tuproqlarining fosfor ta'minotini yaxshilash va qishloq xo'jaligi ekinlarining, xususan g'o'za va kuzgi bug'doyning fosforiga bo'lgan talabini ta'minlash maqsadida fosforli o'g'itlar samaradorligini oshirish yo'nalishida tadqiqotlar olib borish zarurati asoslangan.


Dissertatsiyaning **tadqiqot obyektlari va uslublari** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning obyektlari, tuproq namunalarining kimyoviy tahlillari uslublari, model laboratoriya va dala tajribalari uslubiyotlari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari va ularda fosfor adsorbsiyasi** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotlar hududi tuproqlarining agrokimyoviy xossalari, tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi, muvozanat konsentratsiyasining fosfor adsorbsiyasiga bog'liqligi, harakatchan fosfor bilan turli darajada ta'minlangan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasining Lengmyur va Freyndlix modellari izotermasida tahlillari keltirilgan.


Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari. Toshkent viloyatining o'rganilgan Yuqori Chirchiq, Oqqo'rg'on va Pskent tumani sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari asosan o'rta qumoq, ayrim hollarda og'ir qumoq mexanik tarkibga ega, ular sho'rlanmagan. Karbonatlar miqdori haydov qatlamida, tegishlicha, 7,68; 7,86; 7,97 %, gumus miqdori 1,38; 1,23; 1,06 %, umumiy fosfor miqdori 0,236; 0,226; 0,207 %, umumiy kaliy miqdori 1,84; 1,88; 1,92 %. Harakatchan fosfor bilan juda kam va almashinuvchi kaliy bilan kam ta'minlangan tuproqlar guruhiga kiradi.

Sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi. O'rganilgan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda fosforning tuproq eritmasidagi muvozanat konsentratsiyasi 0,07-0,08 mg/l ni tashkil etgan. Mineral fosfor 0,4 mg/l (10 mg/kg) konsentratsiyasida berilganda fosforning muvozanat konsentratsiyasi 0,15-0,16 mg/l, adsorbsiyalangan fosfor berilgan fosforning 60-62,5 % ini tashkil etgan. Ya'ni fosforning bu konsentratsiyasida tuproq eritmasida fosforning maqbul konsentratsiyasi (0,2 mg/l) ga erishilmagan. Fosfor konsentratsiyasi 0,5 mg/l (12,5 mg/kg) va 0,6 mg/l (15 mg/kg), bo'lganda fosfor adsorbsiyasi 7,0-9,5 mg/kg bo'lib, berilgan fosforning 56,0-63,3 % ini tashkil etib, tuproq eritmasida fosforning maqbul muvozanat konsentratsiyasiga erishilgan. Fosfor konsentratsiyasini 40 mg/l (1000 mg/kg) gacha oshirib borilganda fosforning muvozanat konsentratsiyasi o'rganilgan tuproqlarda 19,8-20,6 mg/l, adsorbsiya 485-505 mg/kg bo'lib, berilgan fosforning 48,5-50,5 % ini tashkil etgan.


O'rganilgan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi kuchayishining berilgan konsentratsiyasiga bog'liqligi izotermasi ushbu bog'liqlik juda kuchli ekanligini ($r^2=0,9998$; $0,9997$; $0,9999$) ko'rsatdi. Lengmyur modeli izotermasida fosfor muvozanat konsentratsiyasining adsorbsiya miqdoriga nisbati ko'rsatgichining muvozanat konsentratsiyasiga nisbati oshib boruvchi to'g'ri chiziqli ko'rinishga ega ekanligi aniqlandi. Bu modelda determinatsiya koeffitsiyenti $r^2= 1,0$ qiymatga ega bo'ldi (1-rasm).



Yuqori Chirchiq tumani




Pskent tumani




Oqqo'rg'on tumani

1-rasm. Berilgan fosfor ta'sirida fosfor adsorbsiyasining Lengmyur modeli izotermasi


Freyndlix modelida berilgan fosfor ta'sirida fosfor adsorbsiyasining o'zgarishi ko'rsatgichlarining determinasiya koeffitsienti ($r^2=0,9989$; $0,9991$) yuqori qiymatga ega bo'ldi (2-rasm).



Yuqori chirchiq tumani




Pskent tumani




Oqqo'rg'on tumani

2-rasm. Berilgan fosfor ta'sirida fosfor adsorbsiyasining Freyndlix modeli izotermasi

Harakatchan fosfor bilan turli darajada ta'minlangan tuproqlarda fosfor adsorbsiyasi. Tadqiqotlar fosfor bilan kam va o'rtacha ta'minlangan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarida qo'llanilgan fosforning adsorbsiyasi farq qilishini ko'rsatdi. Lengmyur modeli izotermasi harakatchan fosfor bilan turli darajada ta'minlangan tuproqlarda qo'llanilgan fosfor eritmasining boshlang'ich konsentratsiyalarida fosfor adsorbsiyasi intensivligi yuqori ekanligi, konsentratsiya oshib borishi bilan fosfor adsorbsiyasi intensivligi susayini ko'rsatdi (3-rasm). Freyndlix modeli izotermasida tuproqlarda berilgan fosforning boshlang'ich konsentratsiyalarida uning adsorbsiyasi harakatchan fosfor bilan o'rtacha ta'minlangan tuproqlardan kam ta'minlangan tuproqlar tomon oshib borib, katta konsentratsiyalarda esa fosfor adsorbsiyasi intensivligi sezilarli farq qilmasligini ko'rsatdi (4-rasm).



3-rasm. Qo'llanilgan fosfor konsentratsiyasi ta'sirida fosfor adsorbsiyasining Lengmyur modeli izotermasi



4-rasm. Qo'llanilgan fosfor konsentratsiyasi ta'sirida fosfor adsorbsiyasining Freyndlix modeli izotermasi

Dissertatsiyaning **Model laboratoriya tajribalari** deb nomlangan to'rtinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo'lib, *tuproqda harakatchan fosfor dinamikasi* paragrafida mineral fosfor bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilganda harakatchan fosfor miqdorini faqat mineral fosfor qo'llanilganiga nisbatan ko'proq bo'lishi ko'rsatilgan. Bunda mineral fosfor 89,3 kg/ga qo'llanilgan variantda tahlilning 7; 15; 30 va 60 - kunlarida harakatchan fosfor miqdori, tegishlicha, 38,4; 37,1; 34,3 va 31,7 mg/kg ni tashkil qildi. 89,3 kg/ga fosfor saqlovchi mineral fosfor+10 t/ga go'ng va mineral fosfor+10 t/ga kompost qo'llanilgan variantlarda tajribaning 7; 15; 30; 60-kunlarida harakatchan fosfor miqdori, tegishlicha, 40,2; 38,7; 36,6; 34,8 mg/kg va 41; 39,1; 37,5; 35,7 mg/kg ni tashkil etdi. Mineral fosfor + 20 t/ga go'ng va mineral fosfor + 20 t/ga kompost qo'llanilganda harakatchan fosfor miqdori yanada yuqoriroq ekanligi va uzoqroq muddat saqlanib turilishi kuzatildi.

Tuproqda fosfor adsorbsiyasi va muvozanat konsentratsiyasi. Tajribada fosforning adsorbsiyasi va muvozanat konsentratsiyasi berilgan fosforning me'yoriga bog'liqligi aniqlangan. Fosforning adsorbsiyasi berilgan fosfor konsentratsiyasi oshib boradi. Tuproq eritmasidagi fosforning muvozanat konsentratsiyasi berilgan fosforning kichik me'yorlarida yuqori intensivlikka ega bo'lib, yuqori me'yorlarda ma'lum miqdorlarda barqarorlashdi.

O'rganilgan tuproqlarning fosforgia buferlik xususiyati qo'llanilgan fosforning tuproq eritmasida ma'lum miqdorda saqlanishini ta'minlaydi. Shu sababli qo'llanilgan fosforning kichik me'yorlarida berilgan fosforning 50,1-59,2 % tuproq eritmasida saqlandi. Fosforning katta me'yorlarida esa tuproq eritmasidagi fosforning berilgan fosfordagi ulushi 10,6-19,4 foizgacha kamayadi.


Bu tuproqqa mineral fosfor 20 mg/kg me'yorida qo'llanilganda fosforning tuproq eritmasida maqbul konsentratsiyasi (0,2 mg/l) ta'minlan bo'lsa, mineral fosfor + 10 t/ga go'ng va mineral fosfor + 10 t/ga kompost variantlarida fosforning me'yori 10 va 15 mg/kg bo'lganida va mineral fosfor + 20 t/ga go'ng variantida qo'llanilgan fosfor 7,5 mg/kg bo'lganida ta'minlandi.

Dala tajribalari deb nomlangan beshinchi bobi oltita paragrafdan iborat bo'lib, ular bir necha bo'limlarga ajratilgan.

Tajriba maydoni tuprog'ining asosiy xossa va xususiyatlari deb nomlangan paragrafida tajriba maydoni sug'oriladigan tipik bo'z tuprog'i mexanik tarkibiga ko'ra o'rta qumoq, sho'rlanmaganligi keltirilgan. Tuproqning haydov va haydov osti qatlamlarida gumus miqdori, tegishlicha, 1,07 va 0,81%, azotning umumiy miqdori 0,081 va 0,058 %, fosforning umumiy miqdori 0,250 va 0,242% ni, kaliyning umumiy miqdori 1,80 va 1,28%ni tashkil etib quyi qatlamlar tomon kamayib boradi. Nitratlar miqdori haydalma qatlamida 15 mg/kg, bo'lib, harakatchan fosfor bilan kam ta'minlangan, almashinuvchi kaliy bilan o'rtacha ta'minlangan.

Tuproq fosfatlarini noorganik va organik birikmalarining fraksiyaviy tarkibi. Tuproq fosfatlarining fraksiyaviy tarkibi Hedley uslubida aniqlandi. Tuproqning haydalma qatlamida umumiy fosfor miqdori 2503 mg/kg ni tashkil etib, mineral fosfor fraksiyalarining umumiy miqdori umumiy fosforning 90,31 % ini, organik fosfor fraksiyalari 9,69 % ni tashkil etadi.

Tuproq haydalma qatlamida umumiy fosforning asosiy qismini qiyin eruvchi fosfor P- HCl kons. (296 mg/kg) va qoldiq fosfor P-H₂ SO₄ / H₂O₂ (1745 mg/kg) tashkil etadi. Temir bilan bogʻlangan fosfor 80 mg/kg, juda labil fosfor 14 mg/kg ni, labil fosfor 48 mg/kg ni tashkil etadi. Organik fosforning 166 mg/kg miqdori HCl kons. fraksiyasi tarkibida aniqlandi. NaHCO₃, NaOH fraksiyalarida esa uning miqdori, tegishlicha, 26 va 50,5 mg/kg ni tashkil etdi (5-rasm).



5-rasm. Dala tajribasi tuprogʻi noorganik va organik fosfatlari fraksiyaviy tarkibi

Tuproqda fosfor adsorbsiyasi va tuproqning fosfoga standart talabi. Tajriba dalasi tuprogʻida fosforning muvozanat konsentratsiyasi fosfor berilmaganda 0,1 mg/l boʻlib, tuproqning fosfoga standart talabidan ancha kam. Berilgan mineral fosforning konsentratsiyasi 0,6 mg/l (15 mg/kg) boʻlganda fosforning muvozanat konsentratsiyasi 0,21 mg/l ni, maqbul konsentratsiyani tashkil etdi. Bunda fosfor adsorbsiyasi 9,75 mg/kg boʻlib, berilgan fosforning 65 % dan iborat boʻldi.

Fosfor konsentratsiyasini 40 mg/l (1000 mg/kg) gacha oshirib borilganda fosfor muvozanat konsentratsiyasi 20,5 mg/l ni, adsorbsiya 487,5 mg/kg ni tashkil etib, berilgan fosforning 48,8 % ini tashkil etdi. Yaʼni fosfor konsentratsiyasi 40 mg/l yetkazilganda fosfor adsorbsiyasi miqdori yanada oshdi, lekin uning berilgan fosfordagi ulushi kamaydi.

Tuproqning fosfoga standart talabi va ekinlarning fosfoga ehtiyoji asosida fosforli mineral oʻgʻit va organik oʻgʻitlar meʼyorlarini belgilash. Dala tajribasi tuprogʻida fosforning muvozanat konsentratsiyasi 0,21 mg/l boʻlganda fosfor adsorbsiyasi 9,5 mg/kg ni tashkil etdi. Shu maʼlumotlar asosida bajarilgan hisob-kitoblarning koʻrsatishicha tajriba dalasi tuprogʻida 35 s/ga paxta hosili yetishtirish uchun fosforning standart talabi asosidagi hisob boʻyicha fosfor meʼyori 157,1 kg/ga ni tashkil etadi. 40 s/ga paxta hosili yetishtirish uchun 165 kg/ga ni, 45 s/ga paxta hosili uchun esa 177,1 kg/ga ni tashkil etadi. Kuzgi bugʻdoyga qoʻllaniladigan fosfor meʼyori ham shu usulda hisoblandi.

Gʻoʻzada oʻtkazilgan dala tajribasi. Tajriba 1) N₂₄₀P₀K₁₂₀ – nazorat; 2) N₂₄₀P₁₆₅K₁₂₀; 3) N₁₉₀P₁₄₀K₇₀ +10 t/ga goʻng; 4) N₁₉₀P₁₄₀K₇₀ +10 t/ga kompost; 5) N₁₄₀P₁₁₅K₂₀ +20 t/ga goʻng qoʻllanilgan variantlarda olib borildi. Organik oʻgʻitlar qoʻllanilgan variantlarda ular tarkibidagi oziqa moddalari miqdori hisobga olingan.

Tuproqda asosiy oziqa elementlari harakatchan shakllari dinamikasi. Dala tajribasi tuprogʻi dastlabki holatida haydov qatlamida nitratlar miqdori 14,2-17,2 mg/kg harakatchan fosfor 19,4-20,9 mg/kg, almashinuvchi kaliy 275-279 mg/kg ni

tashkil etdi. G'ozaning shonalash va gullash davrlarida tuproqning haydov qatlamida nitratlar va almashinuvchi kaliy miqdori dastlabki holatiga nisbatan ko'paydi.

G'ozaning shonalash davrida fosfor qo'llanilmagan variantda harakatchan fosfor miqdori 18,2 mg/kg ni tashkil etgan bo'lsa, mineral fosforli o'g'it $N_{240}P_{165}K_{120}$ qo'llanilgan variantda harakatchan fosfor miqdori 32,4 mg/kg ni, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ngli me'yorlarida, tegishlicha, 34,3; 35,1 va 36,3 mg/kg ni tashkil etdi. G'ozaning gullash davrida nazoratda harakatchan fosfor 17,4 mg/kg bo'lsa, $N_{240}P_{165}K_{120}$; $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ngli variantlarida harakatchan fosfor miqdori 24,8; 26,5; 26,9 va 27,5 mg/kg ni tashkil etdi. G'ozaning pishish davrida nazoratda harakatchan fosfor kamayib 16,4 mg/kg, $N_{240}P_{165}K_{120}$ qo'llanilgan variantda 22,3 mg/kg, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng variantida 22,5 mg/kg, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompostda 22,9 mg/kg va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ngli variantida 22,8 mg/kg ni tashkil etdi.

G'ozaning o'sishi va rivojlanishi. G'ozaning 3-4 chinbarg fazasida variantlar orasida katta farq kuzatilmadi. Shonalash davrida uning o'sishi va rivojlanishida variantlarda sezilarli farqlar kuzatildi. Bunda, $N_{240}P_{165}K_{120}$ variantda g'ozaning bo'yi fosfor berilmagan nazoratga nisbatan 12,6 sm, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng variantlarida nazoratga nisbatan, tegishlicha, 17,1; 17,6 va 18,2 smga baland bo'ldi. Simpodial shoxlar va shonalar sonida ham yuqoridagi xolat kuzatildi. G'ozaning gullash davrida fosforli o'g'it qo'llanilgan variantlarda nazoratga nisbatan asosiy shox bo'yi, simpodial shox, gullar, ko'sakcha, ko'saklar soni bo'yicha ustunligi aniqlandi. Ayniqsa organik o'g'itlar $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng; $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng qo'llanilgan variantlarda simpodial shoxlari, tegishlicha, 10,7; 11,7; 12,5 donani, shonalar 7,9; 8,5; 8,7 donani va gullari 5,5; 5,6; 5,8 donani, ko'sakchalar 6,8; 7,7; 8,3 donani, ko'saklar 5,7; 5,9; 6,2 donani tashkil etib, simpodial shoxlar, shonalar, gullar va ko'saklar soni bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

G'ozaning asosiy oziqa elementlarini o'zlashtirilishi. Tadqiqotlar natijalari g'ozaning fosforni olib chiqishi mineral fosfor qo'llanilmagan nazorat variantidan fosfor qo'llanilgan $N_{240}P_{165}K_{120}$ va fosforli mineral o'g'it bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilgan variantlar tomon oshib borishini ko'rsatdi. Xususan g'ozaning o'simligi tomonidan fosforni o'zlashtirilishining eng yuqori ko'rsatkichlari $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng variantlarda, tegishlicha, 92,88 va 98,41 kg/ga ni tashkil etdi. Shundan tegishlicha, 31,69 va 32,87 kg/ga miqdori vegetativ organlarni, 61,19 va 65,54 kg/ga miqdori generativ organlarni shakllantirishga sarflangan.


$N_{240}P_{165}K_{120}$ va $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkichlar kamroq bo'lib, tegishlicha, 79,11 va 86,77 kg/ga fosfor olib chiqilgan, uning 26,51 va 29,65 kg/ga miqdori vegetativ organlar va 52,60; 57,12 kg/ga generativ organlar tomonidan o'zlashtirilgan.

Azotning olib chiqilishida eng yuqori ko'rsatkichlar 189,7 va 190,5 kg/ga, miqdorlari $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng variantlarida kuzatilib, nazorat variantiga nisbatan ancha ko'p o'zlashtirilgan. Ayni paytda, azotning o'zlashtirilgan miqdori g'o'za vegetativ organlarida generativ organlariga nisbatan ko'proq ekanligi aniqlandi.

G'o'za o'simligi tomonidan kaliyning olib chiqilishi $N_{240}P_0K_{120}$, $N_{240}P_{165}K_{120}$, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng variantlarda, tegishlicha, 123,3; 153,8; 167,3; 176,3 va 177 kg/ga ni tashkil etib, kaliyning taqsimlanishida uning vegetativ organlardagi miqdori generativ organlarga nisbatan ko'pligi kuzatildi.

Tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha g'o'za o'simligi 1 tonna paxta hosilini shakllantirish uchun 40-44,13 kg azot, 20,13-22,54 kg fosfor, 39,16-41,52 kg kaliy sarflaydi. G'o'za tomonidan fosforli o'g'itlar fosforining o'zlashtirilish koeffitsienti 19,68 – 22,56 % oralig'ida tebranib, eng katta ko'rsatkich (22,56%) $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng qo'llanilgan variantda kuzatildi. $N_{240}P_{165}K_{120}$; $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng va $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost qo'llanilgan variantlarda fosforning o'zlashtirilish koeffitsiyenti tegishlicha, 19,68; 20,71 va 21,67 % ni tashkil etdi.

G'o'zaning hosildorligi. Tadqiqot natijalari fosforli mineral o'g'it bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilganda g'o'za hosildorligi oshishini ko'rsatdi. Fosforli o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantida 29,7 s/ga hosil olingan bo'lsa, $N_{240}P_{165}K_{120}$ variantda 39,3 s/ga, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng qo'llanilgan variantlarda, tegishlicha, 42,2; 43; 43,2 s/ga ni tashkil etdi. Bunda fosforli o'g'it qo'llanilmagan nazorat variantiga nisbatan fosforli mineral o'g'it qo'llangan $N_{240}P_{165}K_{120}$ variantda 9,6 s/ga, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng, $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng qo'llangan variantlarda, tegishlicha, 12,5; 13,3 va 13,5 s/ga qo'shimcha paxta hosili olishga erishildi. Fosforli mineral o'g'it bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilgan $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga go'ng; $N_{190}P_{140}K_{70} + 10$ t/ga kompost va $N_{140}P_{115}K_{20} + 20$ t/ga go'ng variantlarida fosforli mineral o'g'it qo'llanilgan variantga nisbatan organik o'g'itlar hisobiga, tegishlicha, 2,9; 3,7 va 3,9 s/ga qo'shimcha paxta hosili olindi (6-rasm).



6-rasm. G'o'za hosildorligi

Kuzgi bug'doyda o'tkazilgan dala tajribasi. Tajribada quyidagi variantlar o'rganildi: 1) $N_{180}P_0K_{60}$ - nazorat; 2) $N_{180}P_{126}K_{60}$; 3) $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga go'ng; 4) $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga kompost; 5) $N_{80}P_{76}K_0 + 20$ t/ga go'ng.

Tuproqda asosiy oziqa elementlari harakatchan shakllari dinamikasi. Tajriba variantlari tuprog'i haydalma qatlamida oziqa elementlari harakatchan shakllari miqdorlari sezilarli farq qildi. Harakatchan fosforning yuqori miqdorlari kuzgi bug'doyning naychalash davrida kuzatilib, fosforli o'g'it berilmagan nazorat variantdan fosforli mineral o'g'it qo'llanilgan $N_{180}P_{126}K_{60}$, $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga go'ng, $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga kompost va $N_{80}P_{76}K_0 + 20$ t/ga go'ng variantlari tomon oshib bordi. Harakatchan azot (nitratlar) va almashinuvchi kaliy miqdorlari fosforli mineral o'g'it va u bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilgan variantlarda fosfor berilmagan nazorat variantga nisbatan ko'proq bo'ldi.

Kuzgi bug'doyning o'sishi va rivojlanishi. Kuzgi bug'doyning naychalash, boshqoqlash va to'la pishish davrlarida o'sishi va rivojlanishi ko'rsatkichlari nazorat variantdan mineral fosfor va ular bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilgan variantlar tomon oshib bordi. Bunda kuzgi bug'doyning ko'chat qalinligi variantlar bo'yicha 253-325 dona/m² ni tashkil etdi. Fosforli mineral o'g'it qo'llanilgan $N_{180}P_{126}K_{60}$ variantda ko'chatlar soni nazoratdagiga nisbatan 24 dona ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga go'ng, $N_{130}P_{101}K_{10} + 10$ t/ga kompost va $N_{80}P_{76}K_0 + 20$ t/ga go'ng variantlarida, tegishlicha, 56; 65 va 72 dona ko'p ekanligi kuzatildi. Shu bilan birga mahsuldor poyalarning umumiy poyalardagi ulushi ham ham shunday holat kuzatildi.

Kuzgi bug'doyning oziqa elementlarini o'zlashtirishi. Kuzgi bug'doyning asosiy oziqa elementlaridan azotni eng ko'p o'zlashtirishi kuzatildi. Azotning o'zlashtirilishi nazorat variantida 130,03 kg/ga, mineral o'g'itlar va ular bilan birga organik o'g'itlar qo'llanilganda azotning o'zlashtirilishi 181,51 - 200,68 kg/ga ni tashkil etdi.

